

**KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNING TAFAKKUR  
OPERATSIYALARI RIVOJLANISHINI NAZARIY JIHATDAN O'RGANILISHI****Ahmadjonov Nurmuhammad Nabijon o'g'li***Farg'ona davlat universiteti, psixologiya kafedrasida o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning tafakkur operatsiyalari rivojlanishini nazariy jihatdan o'rganilishi, aqliy faoliyat, aqliy faoliyat usullari, ijodiy faollik haqidagi qarashlar bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar va iboralar:** *aqliy faoliyat, tafakkur, intellekt, oila muhiti, qobiliyat, bilish, ta'lim, ijodiy faollik.*

Aqliy faoliyat insonning muayyan bilimlarni o'zlashtirish yoki yangiliklarni ochish bilan bog'liq psixik faoliyatdir. Tafakkur atrof-muhitdagi voqelikni nutq yordami bilan bevosita, umumlashtirgan holda aks ettiruvchi psixik jarayon, sotsial-sababiy bog'lanishlarni anglashga, yangilik ochishga va prognoz qilishga yo'naltirilgan aqliy faoliyatdir.

Mazkur muammoni V.M.Karimova qo'yidagicha talqin etadi. qobiliyatlar masalasi eng avvalo inson aql-zakovatining sifati, undagi malaka, ko'nikma va bilimlarning birligi masalasi bilan bog'liq. Ayniqsa, biror kasbning egasi bo'lish istagidagi har bir yoshning aqli va intellektual salohiyati uning malakali mutaxassis bo'lib etishishini kafolatlagani uchun ham psixologiyada ko'proq qobiliyat tushunchasi bilan bog'lab o'rganiladi.

Ilm fandagi an'analar shundayki, aql va idrok masalasi, odamning intellektiga bog'liq sifatlar juda ko'plab tadqiqotlar ob'ekti bo'lgan. Olimlar qobiliyatlarning rivojlanish mexanizmlari, ularning psixologik tarkibi va tizimini aniqlashga, ishonchli metodikalar yaratib, har bir kishining aql sifatiga aloqador bo'lgan ko'rsatkichni o'lchashga uringanlar. Ko'pchilik olimlar odam intellektida uning verbal, miqdoriy, fazoviy ko'rsatkichlarini aniqlab, ularga yana mantiq, xotira va xayol jarayonlari bilan bog'laydilar. qobiliyatlar ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, unga va intellektga bevosita tashqi muhit, undagi insoniy munosabatlar, yashash davri ta'sir ko'rsatadi.

Oila muhitining aql o'sishiga ta'sirini hech kim inkor etmaydi [1]. M.G.Davletshin aqliy tushunchalarni qobiliyat tushunchasi bilan bog'lab o'rgangan. qobiliyat shakllanishi va rivojlanishi, birinchidan, ma'lum bir faoliyatga moyillik yoki intilish borligiga va faoliyat natijalarining sifatiga qarab, tegishli tabiiy zehn nishonalarini aniqlash yo'li bilan, ikkinchidan, mutaxassis rahbarligida sistemali faoliyatga jalb etish orqali shaxsning tabiiy xususiyatlarini chiniqtirish va rivojlantirish yo'li bilan, uchinchidan, umumlashgan aqliy operatsiyalarni shakllantirish yo'li bilan borishi kerakki, bu operatsiyalar umumiy va maxsus axborotni engil va samarali o'zlashtirishni rejalashtirgan faoliyat bo'yicha malaka va ko'nikmalar hosil qilishni ta'minlasin. Bolalarda qobiliyatlarni o'sishi ta'lim-tarbiya jarayonida yuzaga keladi[2].

O'sib kelayotgan yosh avlodda ijodiy faollikni va uning negizida yotuvchi ijodiy qobiliyatni shakllantirish respublika maktablari oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

<sup>1</sup> Karimova V.M. Psixologiya. T.: Xalq merosi nashriyoti. 2002.

<sup>2</sup> Davletshin M.G. O'quvchilarda qobiliyat tarkib topishi. T.:O'qituvchi. 1965. 44-bet.

Chunki «hozirgi maktabning asosiy vazifasi ta'lim metodlarini, o'quvchilarning fikrlashlarini taraqqiy ettirish metodlarini takomillashtirishdir»<sup>[3]</sup>.

G'.B.Shoumarov mamlakat fuqarolarining aqliy saviyasiga alohida urg'u berib, har bir davlat, jamiyat taraqqiyoti, uning istiqboli o'z fuqarolarining saviyasi bilan belgilanishini e'tirof etadi. Jamiyat va fan-texnikaning rivojlanishida aql muhim omil va mezonlardan biridir. Shuningdek, Shoumarov har qanday insonparvarlik jamiyatida aqli zaiflarga e'tibor muhimligini uqtirib, aqli zaiflik omillarini markaziy asab tizimining organik buzilishi, shuning oqibatida bola bilish faoliyatining turg'un pasayishidir deydi<sup>[4]</sup>.

B.R.Qodirov o'z ishlarida zehn, iste'dod aqliy taraqqiyot yuzasidan tadqiqot ishlari olib borgan. Hatto bu borada bank tuzishga ham muvaffaq bo'lgan. «Intellectual potentsialni boyitish aqliy zakovatni shakllantirishning ommaviy va shu bilan birga an'anaviy, hech kimning e'tiroziga sabab bo'lmaydigan turlariga diqqatni ko'proq qaratish, imkon darajada ular moddiy-moliyaviy tomonlarini kuchaytirish, ma'lum yutuqqa erishayotgan yoshlarni kengroq rag'batlantirish, ularga tegishli moliyaviy va madaniy muhit yaratish juda katta ahamiyatga ega. Aqliy faoliyatni tarbiyalaydigan, uning mahsuldorligini oshiradigan, ijodiy xislatlarni rivojlantiradigan an'anaviy metodlar doirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Maktablarda fanlardan ilmiy to'garaklar.
2. O'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida talabalarining ilmiy jamiyatlari.
3. O'quvchilar va talabalarining har xil doirada o'tadigan olimpiadalari.
4. Talabalar ilmiy—tadqiqot ishlari.
5. Ijodiy ishlar, ko'riklar, konkurslar, musobaqalar va hokazo»<sup>[5]</sup>.

R.Toshimov va M.Mamatovlar aql-idrok (intellekt)ni tadqiq qilishning nazariy asoslarini yaratish lozimligini uqtirishadi. Aqliy rivojlanishni tekshirish, o'rganish va hayotga tatbiq etish diagnostik metodlarsiz amalga oshmaydi. Aqliy imkoniyatlarning diagnostikasi jarayonidagi inson qobiliyatlariga amaliy yondashuv shaxsning bir aqliy taraqqiyoti bosqichidan boshqasiga o'tishiga yordam beruvchi muayyan ko'lamdagi bilimlar bo'lishini taqozo qiladi.

E.Z.Usmonova inson bilimi qanchalik keng va chuqur bo'lsa, uning aqliy faoliyatining tajribasi shunchalik mukammallikka ega. U shunchalik ko'p hal etilmagan muammolarni ko'ra oladi, ongidan shunchalik tez echimni talab etuvchi fikriy vazifalar yuzaga keladi, deb aqliy rivojlanishni bilimlarni chuqurlashtirishga bog'laydi. Aqlning muhim sifatlaridan bo'lgan tafakkurga alohida urg'u berib, uning yordamida sezgi, idrokka berilmagan va umuman kuzatish imkoniyati bo'lmagan hodisalarni aqlan hal qilish mumkinligini ta'kidlaydi<sup>[6]</sup>.

Aqliy faoliyat usullari va yo'llarini egallash muammosi ilm va texnikaga yangicha zamonaviy talablarning ortishi, ta'lim metodlarining takomillashishi, o'quv dasturlari nazariy darajasining kuchayishi va ta'limning jadallashuvi munosabati bilan muhimdir, deydi Z.Nishonova o'z ilmiy izlanishlarida. Shuningdek, u o'quvchilarda aqliy faoliyat usullari va yo'llarini guruhviy trening metodi yordamida rivojlantirish strategiyasini o'zbek maktablari amaliyotida qo'llashni tavsiya etadi<sup>7</sup>.

<sup>3</sup> Davletshin M.G. Ta'limning psixologik asoslari. T.: O'qituvchi. 1978. 20-bet.

<sup>4</sup> Shoumarov G'.B., Mamedov K. Aqli zaif bolalar psixologiyasi. Toshkent. 1996.

<sup>5</sup> Qodirov B.R. Aqliy iste'dod XXI asrning eng qimmatli mulkidir. T.: TDPI. 1999. 16-bet.

<sup>6</sup> Usmonova E.Z. O'quvchilarda mustaqil tafakkurni qanday shakllantirish mumkin. T.: TDPU. 2000. 23-bet.

<sup>7</sup> Nishonova Z.T. Yuqori sinf o'quvchilarining aqliy faoliyat usullari va yo'llarini egallash xususiyatlari. Psixologiya fanlari nomzodi.diss. T.: TDPI. 1993.

M.Vohidov qobiliyat odamning ma'lum bir ish yoki harakatlarni boshqa odamlarga nisbatan osonlik va chaqqonlik bilan bajara olish layoqatidir. Odamning qobiliyati, uning turli faoliyatida namoyon bo'ladi. Har qanday normal taraqqiy etgan odam ma'lum bir sohaga nisbatan qobiliyatli bo'ladi.

Tashqi muhitdagi narsa va hodisalar o'rtasida ko'z bilan ko'rib, quloq bilan eshitib bo'lmaydigan ichki munosabatlar hamda qonuniyatlar bor. Ana shu ichki bog'lanish hamda qonuniyatlarni biz tafakkur orqali bilib olamiz<sup>[8]</sup>.

Martin Haydegerning fikricha narsa va voqealarning mohiyatini tushunish, anglab etish insonni fikrlash jarayonida muhim o'rin egallaydi. Tushunishni talab qiladigan narsa, hodisa insonni fikrlashga undaydi. Tushunishni talab qiladigan narsa hech qachon biz tomonimizdan yaratilmaydi.

Tafakkur mavjudligining asosiy ko'rsatkichi, negizi - bu tasavvurdir, - deydi Haydeger. Tafakkur ta'limotlariga asosan tasavvur fikrda, ifodada mujassamlashadi. Shuning uchun ham falsafiy talqinga ko'ra tafakkur haqidagi ta'limot logika ( mantiq) deb ataladi.

Shunday qilib, Haydeger insonni fikrlash jarayonida narsa va hodisalar mohiyati hamda mazmunini anglash, uni tushunib etish muhimligini ta'kidlaydi, tafakkur haqidagi ta'limotni logika (mantiq) deb nomlaydi, lekin mazkur nomlanish oldingi davrlarda ham mavjud edi.

Shveysar yozuvchisi I.Lafater ham o'z davrida yoshlarning aqliy tarbiyasi xususida shunday deb yozgan edi: «Aqli, dono bo'lishni xohlaysanmi? Oqilona so'rash, diqqat bilan tinglash, ba'manilik bilan javob berish, gapirishga so'zing qolmaganida, o'z vaqtida to'xtashga o'rgan». Bu so'zlarning mazmuni va mohiyatida juda katta ma'no va turmush falsafasi yotadi. Zero, adib istak-hohishlarimizning ro'yobga chiqishi bizning aql-idrok orqali mulohaza yuritishimizga bog'liq ekanligini ta'kidlab, fikrlash tarzining bevosita ijtimoiy muhitga va insonning muomala maromiga aloqadorligini uqtiradi.

K.R.Megrelidzening ta'kidlashicha, insonning u yoki bu ruhiy hodisasini ijtimoiy omilni hisobga olmasdan turib to'g'ri tushuntirilishi mumkin emas. Bu narsa birinchi navbatda tafakkurga taalluqli bo'lib, uni ijtimoiy hayotning boshqa ko'rinishlarisiz o'rganish imkoniyati yo'q.

Inson tafakkurining usullari nerv sistemasida ham, bosh miyada ham emas, balki muayyan davrda xuddi shunday idrok etishga odatlanishga, faoliyat ko'rsatishga, boshqa bir davrda esa nerv faoliyatini o'zgacha ishlashga yo'naltiradigan ijtimoiy sharoitda mujassamlashgandir.

Insonlarning mulohazalari, qarashlari individual tartibda emas, balki ijtimoiy munosabatlar natijasida sodir bo'ladi. Bu haqda K.R.Megrelidze shunday yozadi: «Inson tafakkuri tabiiy va biologik qonunlar bo'yicha emas, balki ijtimoiy-tarixiy qonuniyatlar yo'lida harakatlanadi. Insonning fikrlash usuli avvalo ijtimoiy hodisadir»<sup>9</sup>. Fikr hech qachon o'zidan o'zi paydo bo'lmaydi, balki u biror narsa haqida, biror jism bo'yicha bo'lishi mumkin, chunki usiz mulohaza vujudga kelishi mumkin emas.

Tafakkurning funktsiyasi miya faoliyatida kechadigan sub'ektiv psixologik jarayonlar bilangina chegaralanmaydi, balki u:

<sup>8</sup> Vohidov M. Bolalar psixologiyasi. T.: O'qituvchi. 1982. 168-bet.

<sup>9</sup> Megrelidze K.R. Osnovo'e problema' sotsiologii mo'shlenii. Tbilisi.: Izd-vo Metsniera. 1973. s. 27.

Birinchiidan, tafakkur onguing sub'ektiv holatinigina aks ettiribgina qolmasdan, balki ob'ektga ham tegishli bo'lib, balki u narsalar munosabatini ham ifodalaydi.

Ikkinchiidan, yangi fikrning vujudga kelishi bilangina bilish jarayoni tugamaydi, balki uning boshlanishini anglatadi, xolos. Bu holat bilishning boshlang'ich bosqichi bo'lib, g'oyaning sub'ektiv holatidan iboratdir, chunki bunda fikrni ammalga oshirishning bosqichi boshlanadi.

Uchinchiidan, alohida individning fikri ijtimoiy mukammal fikrlarning xususiy ko'rinishidir. Har bir yakka shaxs ijtimoiy tushunchalar va tasavvurlar yordamida fikrlaydi. K.R.Megrelidze inson fikrining ijtimoiyligi haqidagi qarashini qayta-qayta ta'kidlaydi: «Fikrlar va g'oyalar erkin individual ijodning mahsuli emas, balki individning o'zi kabi jamiyat va ijtimoiy munosabatlar mahsulidir. Shuning uchun inson tafakkuri, uning bosqichlari, shaxs fikr yuritishining shakllari va usullari haqidagi jumboqning echimini mantiqiy izlanishlardan, an'anaviy psixologiyadan emas, balki avvalo bu g'oyalarning ijtimoiy kelib chiqishidan izlash kerak. U yoki bu individ jamiyatda yaratilgan ijtimoiy g'oyalarning «tasodifiy» ifodalovchisi bo'lib qoladi»<sup>10</sup>.

Demak, Megrelidzening fikricha, yangi g'oyalarning vujudga kelishi uchun yangicha ijtimoiy munosabatlar, uning yangi ob'ektlari yoki eskicha munosabatlarni yangicha tushunish zarur.

Shunday qilib, umuman ijtimoiy fanlarda, jumladan falsafada inson fikrining ijtimoiyligi muammosi inson tafakkurining manbai sanalmish, atrof-muhitga bog'liqligi asosiy g'oya hisoblanadi.

O'quvchining faol fikrlovchi shaxs bo'lishi zarurati pedagogika fanida allaqachonlar ta'kidlangan va bu muammo qiziqib o'rganilgan. Mashhur Rim pedagogi Mark Fabie Kvintilian to'g'ri va ketma-ket fikrni tarbiyalash uchun nazariy qo'llanmalar, taqlid va mashqlarga tayanib, matematikani o'rganish zarur deb hisoblagan, ya'ni miyani mashq qildirish sog'lom va ijobiy fikrning muhim shartidir.

Mashhur slavyan pedagogi Ya.A.Komenskiy mustaqillik muammosini tadqiq etganda shuni ta'kidlaydiki, aql bilan to'g'ri tushunilgan narsanigina yodlash mumkin. Xuddi shu bois u o'z o'quvchilarida har doim kuzatuv jarayonida va nutq faoliyatida mustaqillikni rivojlantirgan.

Shunga o'xshash J.J.Russo, nemis pedagogi A.Disterverglar ham o'zlarining didaktik ta'limotlarida bolada mustaqil fikrlashni rivojlantirish zarurligi g'oyasini ilgari surgan. Ular mustaqillikni tarbiyaning asosiy tamoyili deb hisoblaganlar. Z. Distervergning fikricha, mustaqil egallangan bilimlar va ko'nikmalar katta ahamiyatga ega. «Aqlni hech narsa bilan to'ldirib bo'lmaydi. Ularni inson o'zi mustaqil o'rganishi, o'zlashtirishi va qayta ishlashi zarur...»<sup>11</sup>. «Yomon o'qituvchi tayyor haqiqatni beradi, yaxshi o'qituvchi esa uni topish yo'lini o'rgatadi»<sup>12</sup>. Distervergning ushbu fikrlarini hozirgi zamon o'qituvchilarining barchasi yodda tutmoqlari zarur.

Pedagoglar F.B.Gorelik, N.Dayri, I.Ya.Lerner tarix darslarida o'quvchilarga ijtimoiy hodisalarning mustaqil tahlil qilish malakalarini o'rgatganlar. Ularning fikricha, o'quvchilarga

<sup>10</sup> Megrelidze K.R. Osnovno'e problema' sotsiologii mo'shlenii. Tbilisi.: Izd-vo Metsniera. 1973.s.325.

<sup>11</sup> Disterverg A. Izbranno'e pedagogicheskie sochineniya. M.: Uchpedgiz. 1956. s.79.

<sup>12</sup> O'sha joyda. 158-b.

radio, televidenie va gazeta sahifalaridagi ayrim ma'lumotlarni mustaqil tahlil qilishi orqoli tabiat, jamiyat qonuniyatlarini anglashga o'rganishlari mumkin. Radio va televidenie ma'lumotlarini mexanik ravishda yod olgan o'quvchilar tarixiy voqealarni tahlil qilish vazifasini uddalay olmaydilar. Gazeta ma'lumotlarin tahlil qilish o'quvchilarni shunisi bilan o'ziga tortadiki, hozirgi zamon voqealarini chuqurroq anglash, olingan bilimlarni amalda qo'llash imkonini yaratadi.

E.Ilenkov o'quvchilarni fikrlashga o'rgatishni savollarni to'g'ri qo'ya olish qobiliyatini rivojlantirishdan boshlash zarur, deb hisoblydi. Uning fikricha, aqlni shunday tarbiyalash kerakki, buning oqibatida qarama-qarshilik asabiylashish uchun sabab bo'lmasdan, balki mustaqil faoliyat uchun, narsalarni mustaqil ravishda qarab chiqish uchun turtki funktsiyasini o'tasin. Agar o'quvchi bir qator urinishlar va xatolardan so'ng, o'qituvchining aytib berishini kutmasdan, muammoli vaziyatdan chiqishning yo'lini topsa, u holda aqliy taraqqiyotda muayyan darajada olg'a siljigan bo'lar edi. Bunday ijodiy sakrash ko'plab tayyor bilimlarni «o'zlashtirishdan» qimmatliroq ahamiyatga ega.

E.Ilenkovning ta'kidlashicha, fikrlashni o'rgatuvchi har bir inson o'zi mustaqil fikrlay olishi zarur. Bu omil shuni anglatadiki, o'qituvchi o'z pedagogik faoliyatida umumiy nazariy, umumiy falsafiy tamoyillarini qo'llay bilishi lozim. Boshqalarni o'zi bilmaydigan narsa va hodisalarga o'rgatish mumkin emas, chunki bu esa, eng avvalo, o'qituvchining o'zi fikrlashga o'rganishi zarurligini anglatadi, u zamon taqozo etuvchi darajada fikrlashi zarur.

N.V.Kuxarev o'quvchilar ko'rgazmali qurol yasash, ularni asoslash, darsda javob berayotgan chog'da ulardan foydalanish - bilish faolligining omillaridan biri ekanligini isbotlaydi. Muallif aqliy mustaqillikni o'quvchining borliqni bilish uchun zarur umumiy malaka va ko'nikmalarini yaxshi egallaganligi, bilimlarni egallash, yangi vaziyatlarda ularni ijodiy qo'llash qobiliyati, deb ta'riflaydi. Aqliy mustaqillik ikkiga - o'quvchiga va o'qituvchiga qaratilganligi bilan o'ziga xos tavsifga ega. Ijodiy qobiliyatlarga ega bo'lmagan, faol fikrlovchi shaxsni shakllantira olmaydigan, buning uchun zarur ta'sir vositalarini tanlay bilmaydigan o'qituvchi o'quvchilarda zarur xislatlarni tarbiyalay olmaydi. N.V.Kuxarevning fikricha, o'quvchilarda aqliy mustaqillik darajasini quyidagi belgilarga qarab ajratish mumkin: o'rganilayotgan mavzuni tahlil qila olish; hodisa va jarayonlardagi muhim belgilarni topish, taqqoslash, umumlashtirish, sabab-oqibat bog'lanishlarini asoslash; o'rganilgan mavzuni amalda qo'llash; o'z ishlarini o'qituvchining topshirig'i bilan va mustaqil rejalashtirish. O'quvchilar aqliy mustaqilligining asosiy belgilari ularning muammoni anglash darajasiga, farazni ilgari surish va ifodalash ko'nikmasiga; izlash rejasini mustaqil ishlab chiqish; tadqiqot natijalari va o'rganilayotgan hodisalar orasidagi bog'lanishni aniqlash ko'nikmasiga, ularning ishonchligini tekshirish jarayoniga aloqadordir.

Bilish, aqliy va ijodiy faollik - bilish va aqliy mustaqillikning muhim tarkibiy qismlaridir. Xuddi shu bois o'quvchilarning mustaqil ishini ularning mustaqil fikri bilan, ichki va tashqi belgilarni hisobga olish bilan xaspo'shlash mumkin.

N.V.Kuxarev o'quvchilarda mustaqillikni shaxs xislati sifatida shakllantirishda o'qituvchining rolini ularda ijodiy aqliy, mustaqillikni rivojlantirishni faol, maqsadga yo'naltirilgan ketma-ketliklar sifatida tushunadi.

O'qituvchi maqsadni ifodalaydi: ish jarayonini va maqsadga erishish yo'lining vositalarini o'ylab qo'yadi; yosh xususiyatlarini va individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ish

muvaffaqiyatini ta'minlaydigan usullar va metodlarni aniqlaydi. Mustaqillik o'quvchining shaxs xislatiga aylanishi joiz, ijodiy faoliyat mustaqil ishlarning oliy shakli

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Karimova V.M. Psixologiya. T.: Xalq merosi nashriyoti. 2002.
2. Davletshin M.G. O'quvchilarda qobiliyat tarkib topishi. T.:O'qituvchi. 1965. 44-bet.
3. Davletshin M.G. Ta'limning psixologik asoslari. T.: O'qituvchi. 1978. 20-bet.
4. Shoumarov G'.B., Mamedov K. Aqli zaif bolalar psixologiyasi. Toshkent. 1996.
5. Qodirov B.R. Aqliy iste'dod XXI asrning eng qimmatli mulkidir. T.: TDPI. 1999. 16-bet.
6. Usmonova E.Z. O'quvchilarda mustaqil tafakkurni qanday shakllantirish mumkin. T.: TDPU. 2000. 23-bet.
7. Nishonova Z.T. Yuqori sinf o'quvchilarining aqliy faoliyat usullari va yo'llarini egallash xususiyatlari. Psixologiya fanlari nomzodi.diss. T.: TDPI. 1993.
8. Vohidov M. Bolalar psixologiyasi. T.: O'qituvchi. 1982. 168-bet.
9. Мегрелидзе К.Р. Осново проблема социологии мышления. Тбилиси.: Изд-во Мецниера. 1973. с. 27.
10. Мегрелидзе К.Р. Социология основной проблемы. Тбилиси.: Изд-во Мецниера. 1973. С. 325.
11. Дистерверг А. Избранное педагогические сочинения. М.: Вы летали. 1956. С.79.
12. А.Абдуллаева Н.Тошболтаева //ОНГ ВА ТАФАККУР БУЗИЛИШЛАРИ// FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES: a collection scientific works of the International scientific conference. 13 April 2023. Part 18. 27-32 pages.
13. Тошболтаева Нодира Иброхимжонова //ШАХС ТАРАҚҚИЁТИДА ТАФАККУРНИНГ АҲАМИЯТЛИЛИГИ МАСАЛАЛАРИ// Международный научный журнал «Научный импульс». № 5 (100), часть 2. Декабрь, 2022. 196-199 стр.
14. Тошболтаева Нодира Иброхимжонова //БИЛИШ ЖАРАЁНЛАРИ РИВОЖЛАНИШИДА ШАХСНИ ТАРАҚҚИЙ ЭТИШИ// JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH VOLUME-2, ISSUE13 (26-December). 472-475.
15. Тошболтаева Нодира Иброхимжонова, Тошболтаев Салоҳиддин Хамидуллаевич //МУСТАҚИЛ ТАФАККУР ЖАРАЁНИНИ ИБН СИНО ТАЪЛИМОТИДА ТАҲЛИЛИ// Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке». № 6 (100), часть 2. январь, 2023 г. 114-118 стр.
16. Toshboltayeva Nodira Ibrohimjonovna //The importance of thinking in the complex process of individual activity// International conference on Studies in Humanities, Education and Sciences. January 10 th,2022. 69-70 pages.

17. O.R.Parpiyeva, Ostanaqulov A.D //SCHIZOPHRENIA DISEASE// Международный научно-практический журнал “Теория и практика современной науки” Выпуск №6 (48) – 2019. 18-21 pages.
18. O.R Parpiyeva, Ostanaqulov A.D //Thoughts that do not go away from the brain// Международный научно-практический журнал “Мировая наука”. Выпуск № 6 (27) – 2019. 9-12 стр
19. Ibrokhimjonovna T.N. PERSONAL EDUCATION AS A MAIN BASIS OF SOCIETY'S DEVELOPMENT //Academicia Globe: Inderscience Research. – 2021. – Т. 2. – №. 03. – С. 1-2.
20. Тошболтаева, Нодира Иброхимжоновна. "Важные аспекты упражнений в умственной деятельности психологическая интерпретация." INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION 1.5 (2020): 97-99 pages.
21. A.R. Abdullayeva //THE SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL INFLUENCE OF THE FAMILY ON THE FORMATION OF A HEALTHY LIFESTYLE// International Journal of Education, Social Science & Humanities. FARS Publishers. Volume-11. Issue3. 2023. 670-674 pages.
22. А.Абдуллаева, Н.Тошболтаева //ОИЛА ВА НИКОҲ МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛОВЧИ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАР// INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION International scientific-online conference. 23 rd January, 2023. – Canada, Ottawa. 136-140 pages.
23. Абдуллаева А. //ОИЛАНИ МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛОВЧИ ФАКТОРЛАРНИ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ// МУАЛЛИМ ЖУРНАЛИ. 11 ЖИЛД. 2022 ЙИЛ.
24. Абдуллаева А.Р. //ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ В СИСТЕМЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО И МУНИЦИПАЛЬНОГО УПРАВЛЕНИЯ// Uzbek Scholar Journal. – 2022. – Т. 6. – С. 26-29.
25. Eleonora Topvoldievna Mirzajonova, Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva //Modern Special Preschool Education: Problems and Solutions// Journal of Pedagogical Inventions and Practices. Vol. 9. 06-2022. 100-106 pages.
26. A.R.Abdullayeva //PSYCHOLOGICAL FACTORS OF FORMING A HEALTHY LIFESTYLE IN THE FAMILY// ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. Volume 4, Issue 3March, 2023. 43-50 pages.
27. Ahmadjonov Nurmuhammad //DEVELOP STUDENTS' THINKING SKILLS IN THE LEARNING PROCESSBASICS// *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*. Volume 2, Issue 1, Jan, 2021. 15-21 pages.
28. Ahmadjonov Nurmuhammad, Sobirjonova Masturabonu //8-9 YOSHDAGI BOLALARDA GEOMETRIK MATERIALLARNI O'RGANISH ORQALI AQLIY OPERATSIYALARNI SHAKLLANTIRISH// 3rd International Multidisciplinary Scientific Conference on Ingenious Global Thoughts Hosted from Kuala Lumpur, Malaysia May 31. Vol. 25 No. 1 (2021). 182-188.

29. Ahmadjonov Nurmuhammad Nabijon o'g'li //PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE FATHER'S RELATIONSHIP IN PERSONS WITHDIFFERENT DEGREE OF DEPENDENCE// “PEDAGOGS” international research journal. Volume-24, Issue-3, Decembe. 2022. 124-127 pages.